



Defective verbs in the science of “sarf” and “nahv” of the Arabic languages

Aygul UMURZAKOVA¹

Uzbekistan State University of World Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2024

Received in revised form

10 May 2024

Accepted 25 May 2024

Available online

25 June 2024

Keywords:

sarf,

nahv,

defective verbs,

auxiliary verbs.

ABSTRACT

In this article, the defective verbs in the science of “sarf” and “nahv” of the Arabic language are studied. As a result of our research, differences between defective verbs have been shown in the science of “sarf” and “nahv”. The purpose of the research work is to differentiate between the defective verbs studied in the science of “sarf” and the defective verbs studied in the science of “nahv” based on the original Arabic sources.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss1/S-pp553-557>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Arab sarf va nahv ilmida noqis fe'llar

Kalit so'zlar:

sarf,

nahv,

noqis fe'llar,

yordamchi fe'llar.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, arab tili “sarf” va “nahv” ilmida noqis fe'llar o'rganib chiqildi. Olib borilgan izlanishlarimiz natijasida, “sarf” va “nahv” ilmida noqis fe'llarning farqlari ko'rsatib berilgan. Tadqiqot ishining maqsadi, asl arab manbalarga tayangan holda “sarf” ilmida o'rganiladigan noqis fe'llar va “nahv” ilmida o'rganiladigan noqis fe'llarni farqlarini ajratib berish.

Недостаточные глаголы в науке «сарф» и «нахв» арабского языка

Ключевые слова:

сарф,

нахв,

недостаточные глаголы,

вспомогательные глаголы.

АННОТАЦИЯ

В данной статье изучаются глаголы недостаточного вида в науке о «сарф» и «нахв» арабского языка. В результате наших исследований были показаны различия между глаголами недостаточного вида в науке «сарф» и «нахв».

¹ Teacher, Department of Theory and Practice of Arabic Translation, Uzbekistan State University of World Languages.
E-mail: aygulumurzakova@gmail.com

Цель исследовательской работы – разграничить глаголы недостаточного вида, изучаемые в науке «сарф», и глаголы недостаточного вида, изучаемые в науке «нахв», на основе оригинальных арабских источников.

KIRISH

Arab tilida soʻzlar oʻz semantik belgilari va grammatik xossalariga koʻra turkumlarga boʻlinadi. Soʻzning semantik belgisi, uning narsa, harakat, xoss kabi maʼnolarining ifodalanishidir. Grammatik xossa deganda, soʻzning morfologik va semantik xususiyatlari nazarda tutiladi. Soʻzni tarkib nuqtai nazaridan oʻrganish morfologiya **“sarf” (الصرف)** ning vazifasidir. Maʼlumki, gaplarning oʻzi soʻzlardan tuziladi. Soʻzlarning gapdagi vazifasini sintaksis **“nahv” (النحو)** oʻrganadi. Arab tilidagi barcha soʻzlar uch qismga – turkumga boʻlinib oʻrganiladi. Bular **ism (الاسم)**, **feʼl (الفعل)** va **harf (الحرف)** lardir. Til haqidagi bilimda “turkum” maʼno va leksik xossalari mushtarak boʻlgan soʻzlarning majmuasidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda arab sarfidagi turkum tushunchasi nisbiy xarakterga ega. Hamma gap shundaki, mazkur qismlarning har biri oʻz ichiga bizning tushunchamizdagi bir necha turkumlarni oladi. Shunga koʻra, ularni turkum guruhlari deb atash maqsadga muvofiqdir[6].

MAVZU DOLZARBLIGI

Sarf (الصرف) ilmi arab tili haqidagi bilimlar tarkibiga kiruvchi asosiy fanlardan hisoblanib, zamonaviy va klassik arab tilini oʻrganishda gʻoyat muhim oʻrin tutadi. Baʼzi ulamolar ushbu fanni “tasrif ilmi” (التصرف) deyishgan. Lekin aksar olimlar fikricha, shu ilmga “sarf” (الصرف) atamasi ishlatish toʻgʻriroqdir. Zero, “tasrif” soʻzi “sarf” dan olingan. Bundan tashqari, “sarf” (الصرف) vazn jihatdan ham “nahv” (النحو) soʻziga mos keladi. Shu bois manbalarda “nahvu sarf” iborasi koʻp uchraydi.

Lugʻatda, “sarf” (الصرف) va “tasrif” (التصرف) soʻzlari “oʻzgartirmoq, aylantirmoq” maʼnolarini anglatadi. Istilohda esa, “sarf” (الصرف) ilmi kalimalarning tuzilishi, turli maʼnolarni ifoda qilish uchun masdarlardan xilma-xil kalimalar yasash, feʼllarni turli siygʻalarda tuslashini oʻrgatadigan fandır. “Sarf” (الصرف) ilmi bir oʻzakdan turli soʻzlar yasashni oʻrgatadi. Bu fanning muhimligi ham shunda [2].

Ahmad ibn Ali ibn Masʼud (rahimahulloh):

“Bilginki, sarf ilmlarning onasi, nahv esa otasidir”, – deganlar.

Demak, bu fan orqali soʻzlar paydo boʻladi, ulardan turli shakl va siygʻalar kelib chiqadi. Sarf (الصرف) ilmi kalimalarning yolgʻiz shakldagi holatlarini va feʼllarning tuslanishini oʻrganadigan ilm hisoblanadi.

TAHLIL

“As-sarf al-kaafi” asari muallifi Ayman Amin Abdulgʻoni “sarf” (الصرف) ilmini istilohda mana bunday taʼriflagan[10]:

“الصرف هو علم يبحث عن أبنية الكلمة العربية و صيغتها و بيان حروفها من أصالة ، أو زيادة ، أو حذف ، أو صحة ، أو إعلال ، أو إبدال... ، إلى غير ذلك.”

Ushbu taʼrifga koʻra “sarf” (الصرف) ilmi, arab soʻzlarining tuzilishi, shakli, soʻzlarning harflari aslmi yo orttirilganmi yo tushurib qolingani yoki soʻlommi yo illatlimi yo almashtirilganmi va boshqa shu kabilarni tushuntirib berish haqida muhokama qiladigan ilmdir.

Mana shu kitobning davomida “sarf” (الصرف) ilmining oʻrganiladigan mavzulari koʻlami haqida toʻxtalib oʻtilgan[10].

" يختص علم الصرف بالأسماء العربية المتمكنة ، والأفعال المتصرفة ، فلا يبحث في الأسماء المبنية كالضمائر ، ولا في الأسماء الأعجمية كـيوسف ، ولا في الأفعال الجامدة كعسى وليس ، ولا في الحروف بأنواعها المختلفة".

"Sarf" (الصرف) ilmi, ism so'z turkumidagi fleksiya bo'yicha o'zgaruvchi arab so'zlari va fe'l so'z turkumidagi fleksiya bo'yicha o'zgaruvchi fe'llar bilan maxsus shug'ullanadi. Bu ilm ism so'z turkumidagi o'zgarmaydigan so'zlar olmoshlar kabi, so'zlarning arabcha bo'lmagan shakli Yusuf kabi so'zlar, fe'l so'z turkumidagi fe'llarning turlanmaydigan, qotib qolgan shakldagi fe'llari masalan, أَيْسَ va harf so'z turkumidagi harflarning turli xil turlarini o'rganmaydi.

Arab kalimalarining mazoni ل ، ع ، د ، ف ، ع ، ل dir. Ya'ni kalimadagi asl harflardan zoida harflarini ajratish uchun qo'yiladigan o'lchovdir. Kalimada ل ، ع ، ف barobarida kelgan harflar asliy harflar deyiladi. Masalan: ضَرَبَ – فَاعِلٌ vaznida. Arab tilida illat harflari uchta bo'lib, ular ا ، ي ، و harflaridir.

"Sarf" (الصرف) ilmida fe'llarning o'zak harflari illatli harf bo'lishi yoki bo'lmasligi jihatidan fe'llarning qismlarga bo'linishini haqida "Jomi' ad-durus al-arabiyya" asarida shunday deyilgan[8]:

" ينقسم الفعل – باعتبار قوة أحرفها وضعفها – إلى قسمين : صحيح ، ومُعْتَلٌّ . فالصحيح : ما كانت أحرفه الأصلية أحرفاً صحيحة مثل : " كَتَبَ – وَكَاتَبَ " . وهو ثلاثة أقسام : سالمٌ ، ومهموزٌ ، ومُضَاعَفٌ . فالسالم : ما لم يكن أحدُ أحرفه الأصلية حرفَ علةٍ ، ولا همزةً ، ولا مضِعَّةً ، مثل : " كَتَبَ وَذَهَبَ وَعَلِمَ " . والمهموز : ما كان أحدُ أحرفه الأصلية همزةً . وهو ثلاثة أقسام : مهموزُ الفاء : كأخَذَ ، ومهموزُ العين : كَسَأَلَ ، ومهموزُ اللام : كَفَرَأَ . والمضاعف : ما كان أحدُ أحرفه الأصلية مكرراً لغير زيادة . وهو قسمان : مضاعفٌ ثلاثيٌّ : كَمَدَّ وَمَرَّ ، ومضاعفٌ رباعيٌّ : كَزَلَزَلَ ودمدمَ .

Fe'l harflarning illatli harfi bo'lishi yoki bo'lmasligi e'tiborga olgan holda ikki qismga bo'linadi: sahih " صحيح " va mo'tal " مُعْتَلٌّ ".

" Sahih " fe'l – asl harflarida illatli harfi bo'lmagan fe'l, masalan " وَكَاتَبَ " . U uch qismga bo'linadi: solim سالم " , mahmuz "مهموزٌ" va muzo'af "مُضَاعَفٌ" .

1. Solim (to'g'ri fe'l) – fe'lning asl harflarida illatli harfning birortasi ham va na hamza va na ikki bir jinsli harf bo'lmagan fe'l. Misol, "كَتَبَ وَذَهَبَ وَعَلِمَ".

2. Mahmuz (hamzali fe'l) – fe'lning asl harflaridan birida hamza bo'lgan fe'l. Hamzaning qaysi o'zak undosh " ل ، ع ، ا " o'rnida kelishiga qarab, bu fe'llar uch turga bo'linadi:

1) birinchi o'zak undosh " ف " hamzadan iborat fe'l. Misol, أَخَذَ

2) ikkinchi o'zak undosh " ع " hamzadan iborat fe'l. Misol, سَأَلَ

3) uchinchi o'zak undosh " ل " hamzadan iborat fe'l. Misol, قَرَأَ

3. Muzo'af (ikkilangan fe'l) – fe'lning asl harflaridan birining ikkinchi " ع " bilan uchunchi " ل " bir jinsda bo'lgan fe'l. Ikkilangan fe'l ikki qismga bo'linadi:

1) muzo'af sulasiy " uch harfli fe'l. Misol, مَدَّ وَمَرَّ – مضاعفٌ ثلاثيٌّ

2) muzo'af ruboiy " to'rt harfli fe'l. Misol, زَلَزَلَ ودمدمَ – مضاعفٌ رباعيٌّ

" والفعلُ المعتلُّ : ما كان أحدُ أحرفه الأصلية حرفَ علةٍ ، مثل : " وَعَدَ وَقَالَ وَرَمَى " . وهو أربعة أقسام : مثالٌ ، وأجوفٌ ، وناقصٌ ، ولفيفٌ . فالمثال : ما كانت فائِدةُ حرفِ علةٍ : كَوَعَدَ وَوَرِثَ . والأجوفُ : ما كانت عينُه حرفَ علةٍ : كَقَالَ وَبَاعَ . والناقصُ : ما كانت لامُه حرفَ علةٍ : كَرَضِيَ وَرَمَى . واللفيفُ : ما كان فيه حرفان من أحرفِ العلةِ أصليَّان ، نحو : " طَوَى وَوَفَى " . وهو قسمان : لفيفٌ مقروءٌ ، ولفيفٌ مفروقٌ . فاللفيفُ المقروءُ : ما كان حرفا العلةِ فيه مجتمعين ، نحو : " طَوَى وَنَوَى " . واللفيفُ المفروقُ : ما كان حرفا العلةِ فيه مُفْتَرِقَيْن ، نحو : " وَفَى وَوَقَى " .

Mo'tal (zoif) fe'l – asl harflaridan biri illatli harf bo'lgan fe'l, masalan " وَعَدَ وَقَالَ " [8]. Lفيفٌ " va lafif " ناقصٌ " , ajvaf " أجوفٌ " , misal " مثالٌ " . U to'rt qismga bo'linadi: misal " مثالٌ " , ajvaf " أجوفٌ " , noqis " ناقصٌ " va lafif " لفيفٌ " .

1. Misal (solimsifat fe'l) – fe'lning birinchi o'zak undosh " ف " si, illatli harf bo'lgan fe'l. Misol, وَعَدَ وَوَرِثَ .

2. **Ajvaf** "أجوف" – fe'ning ikkinchi o'zak undosh "ع" i, illatli harf bo'lgan fe'l. Misol, قَالَ وَبَاغ.

3. **Noqis** "ناقص" – fe'ning uchinchi o'zak undosh "ل" i, illatli harf bo'lgan fe'l. Misol, رَضِيَ وَرَمَى.

4. **Lafif** "لَفِيف" – fe'l o'zagidagi asl ikki harf, illatli harflardan bo'lgan fe'l. Shunday, "لَفِيفٌ مَفْرُوقٌ" va "لَفِيفٌ مَقْرُونٌ". Bu fe'l ikkiga bo'linadi: lafif maqrun "لَفِيفٌ مَقْرُونٌ" va lafif mafruq "لَفِيفٌ مَفْرُوقٌ".

1) lafif maqrun "لَفِيفٌ مَقْرُونٌ" – fe'ldagi ikki illatli harfning birga qo'shilgan holda bo'lishi. Shu ko'rinishda, "طَوَى وَنَوَى".

2) lafif mafruq "لَفِيفٌ مَفْرُوقٌ" – fe'ldagi ikki illatli harfning ajralgan holda kelishi. Shu ko'rinishda, "وَفَى وَوَقَى".

Shunday qilib sarf ilmida noqis fe'l, fe'ning uchinchi o'zak undosh "ل" i, illatli harf bo'lgan fe'l.

Fuad Ne'mat "ملخص قواعد اللغة العربية" asarida "nahv" (النحو) ilmiga shunday ta'rif beradi[13]:

"النحو : قواعد يعرف بها وظيفة كل كلمة داخل الجملة ، وضبط أواخر الكلمات ، وكيفية إعرابها"

"Nahv" (النحو) ilmi qoidalaridan, har bir so'zning jumla ichidagi vazifasi ma'lum bo'lib, bunda so'zlarning oxirgi harakatini aniqlash va ularni qanday e'roblash haqida o'rganiladi.

"Jomi' ad-durus al-arabiyya" asarida Mustafo al-G'aloyniy noqis fe'l haqida quyidagilarni aytib o'tgan[8]:

"الفعل الناقص : هو ما يدخل على المبتدأ والخبر ، فيرفع الأول تشبيهاً له بالفاعل ، وينصب الآخر تشبيهاً له بالمفعول به ، نحو : " كان عمرٌ عادلاً ". ويُسمَّى المبتدأ بعد دخوله اسماً له ، والخبر خبراً له .
" وسميت هذه الأفعال ناقصة ، لأنها لا يتم بها مع مرفوعها كلام تام ، بل لا بد من ذكر المنصوب ليتم الكلام . فمنصوبها ليس فضلة ، بل هو عمدة ، لأنه في الأصل خبر للمبتدأ ، وإنما نصب تشبيهاً له بالفضلة ، بخلاف غيرها من الأفعال التامة ، فإن الكلام ينعد معها بذكر المرفوع ، ومنصوبها فضلة خارجة عن نفس التركيب .
والفعل الناقص على قسمين : كَانَ وأخواتها ، وكادَ وأخواتها ."

"Noqis fe'l, ega va kesimning oldida kelib, uning birinchisini foil (fe'liy jumlaning egasi)ga o'xshab bosh kelishikka, oxirini to'ldiruvchiga o'xshab tushum kelishigiga soladi. "Umar adolatli edi" ko'rinishida. Noqis fe'ning qo'shilishida ega – noqis fe'ning ismi va kesim esa noqis fe'ning kesimi deb ataladi.

"Bu fe'llarning noqis fe'llar deb nomlanishi, chunki ularning bosh kelishik bilan kelishi tugallanmagan bo'lib, jumla mukammal bo'lmaydi. Balki mukammal jumla bo'lishi uchun, tushum kelishigi ko'rsatilib o'tilishi zarur. Ularning tushum kelishigida kelishi gapning ikkinchi darajali bo'lagi degani emas, balki u asosdir. Chunki u aslida eganing kesimidir. Haqiqatda uning tushum kelishigida kelishi ulardan tashqari, to'liq fe'llarning ikkinchi darajali bo'lagiga o'xshaydi. Agar jumla ular bilan bosh kelishik ko'rinishida bog'langan bo'lsa, tushum kelishigida kelishi esa tarkibning o'zidan tashqari ikkinchi darajali bo'lagi hisoblanadi".

Nahv ilmida noqis fe'l ikki qismga bo'linadi: "كَادَ وَأَخَوَاتُهَا" va "كَانَ وَأَخَوَاتُهَا".

ning boshida "الجملة الاسمية" yordamchi fe'llari ismiy jumla "كَادَ وَأَخَوَاتُهَا" va "كَانَ وَأَخَوَاتُهَا" kelib, bu fe'llar jumlada tugallangan ma'noga ega bo'lishi uchun, xabarga muhtoj bo'ladi, shu jihatidan noqis fe'llar "الأفعال الناقصة" ga aylanadi.

ning sababi, "الأفعال الناقصة" fe'llarining noqisligi "كَادَ وَأَخَوَاتُهَا" va "كَانَ وَأَخَوَاتُهَا" odatda to'liq fe'llar "الأفعال التامة" bosh kelishikda kelgan o'z foillari bilan birga, xoh u zohiriy xoh u taqdiriy bo'lsin, biror bir ma'no anglatishga kifoya qiladi. "الأفعال الناقصة" fe'llar esa jumlaning tugal ma'nosi uchun faqat bosh kelishikning o'ziga kifoya

qilmasdan, xabarga ehtiyoj sezadi. "الأفعال التامة" to'liq fe'llar biror bir hodisani sodir bo'lgan zamoniga dalolat beradi. Masalan, "كَتَبَ" bo'lsa, "كتابة" yozishning o'tgan zamonda sodir bo'lganiga dalolat bermoqda. "الأفعال الناقصة" noqis fe'llar esa faqatgina zamonini ko'rsatadi.

XULOSA

Shunday qilib, arab tili "Sarf" (الصرف) ilmda fe'llarning o'zak harflari illatli harf bo'lishi yoki bo'lmasligi jihatidan fe'llarning qismlarga bo'linishiga ko'ra, fe'lning uchinchi o'zak undosh "ل" i, illatli harf bo'lgan fe'llar "noqis fe'llar"dir. "Nahv" (النحو) ilmda esa sintaktik aloqalarni ifodalashda qo'llaniladigan yordamchi fe'llar, "noqis fe'llar" mavzusida o'rganiladi. Bu fe'llarning noqis deb atalishi, ularning semantik xususiyatidan kelib chiqqan. Ularning ma'no jihatidan "noqisligi" yordamchi fe'l vazifasida kelganida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdugabbarov A. Arab tili. – T.: 2007.
2. Ahrorov I. Taysirus sarf. –T.: 2015.
3. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. I jild. – N.: 2009.
4. Hasanov M, Abzalova M. Arab tili darslari. – T: 2016.
5. Orifxo'jayev N. Arab tili nazariy grammatikasi. –T.: 2010.
6. Talabov E. Arab tili. – T.: 1993.
7. Халидов Б. З. Учебник арабского языка. – Т.: 1981.
8. مصطفى الغلايني. جامع الدروس العربية. القاهرة – ٢٠٠٧.
9. حفنى ناصف، محمد دياب، مصطفى طموم، محمد صالح. الدروس النحوية . القاهرة – ٢٠٠٩.
10. أيمن أمين عبد الغني. الصرف الكافي. دار التوفيقية- القاهرة – ٢٠١٠.
11. أيمن أمين عبد الغني. النحو الكافي. دار التوفيقية- القاهرة – ٢٠١٠.
12. علي الجارم بك، مصطفى أمين بك. النحو الواضح. – القاهرة – ٢٠١٥.
13. فؤاد نعمة. قواعد اللغة العربية. – ٢٠١٠.